
Viloyatimizda joriy oy uchun pensiya va nafaqalar summasi to'liq moliyalashtirib berildi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qaroriga muvofiq, Pensiya jamg'armasiga pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Farg'ona viloyat boshqarmasi tomonidan mazkur oy uchun fuqarolarga joriy to'lovlarni moliyalashtirishga taqdim etilgan talabnomalar umumiy hajmidan kelib chiqib, **pensiya va nafaqalar summasi bugun 2018 yil 13 aprel kuni to'liq moliyalashtirib berildi.** Bu haqda viloyat pensiya jamg'armasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Elyorbek Asronqulov viloyat hokimligi axborot xizmatiga ma'lumot berdi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, ushbu moliyalashtirish qonun hujjatlariga muvofiq, jamg'arma tomonidan har oyning 15 sanasigacha 50 foiz, 27 sanasigacha 100 foiz amalga oshirilmoqda.

2018-04-13 19:43:07